JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 6, July- August 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

GENDER TENGLIGI MAVZUSI YUZASIDAN YOZGAN MAQOLASI GENDER TENGLIGI: ADOLATNING YANGI OVOZI

Xayitbayeva Shaxzoda
Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Huquqni sohalararo o'rganish fakulteti 4-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:
Received:04.07.2026
Revised: 05.08.2026
Accepted:06.08.2026

KALIT SO'ZLAR:
Gender tengligi, xotin-qizlar huquqlari, ijtimoiy adolat, stereotiplar, O'zbekiston islohotlari, iqtisodiy o'sish, taraqqiyot strategiyasi, siyosiy ishtirok, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash.

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada gender tengligining zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va O'zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Matnda gender stereotiplarining rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillari ko'rsatib o'tilgan hamda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini oshirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan. Shuningdek, gender tengligining mohiyati, tushunchasi va zamonaviy jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan.

Gender tengligi: Jamiyat taraqqiyotining asosi va barqaror kelajak kafolati

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixida adolat va tenglik tushunchalari hamisha taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib kelgan. Bugungi kunda jahon hamjamiyati oldida turgan eng o'tkir masalalardan biri — gender tengligidir. Bu shunchaki ayollar huquqlari uchun kurash emas, balki jamiyatning har bir a'zosi o'z salohiyatini jinsiy kamsitishlarsiz ro'yobga chiqara olishi haqidagi global harakatdir. XXI asrda gender tengligi barqaror rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi, chunki jamiyatning yarmini tashkil etuvchi ayollarning imkoniyatlarini cheklash — bu butun insoniyat taraqqiyotini yarim tezlikda ushlab turish demakdir. Gender tengligini ta'minlash masalasi global miqyosda, ayniqsa, 1945yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilishi bilan ko'rib chiqila boshlandi; o'shanda BMT Nizomi ayollar va erkaklarning teng huquqliligini rasman tan oldi. Shu munosabat bilan BMT Bosh kotibi Antoniu Guterresh shuni ta'kidladiki: "Ayollar

siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan joyda iqtisodiyot o‘sadi, barqarorlik mustahkamlanadi va fuqarolarning farovonligi oshadi”. Mamlakat taraqqiyoti uchun qabul qilingan ko‘plab dasturlar adolatli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan rejalar va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Masalan,“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan maqsadlar orasida “xotin-qizlarni qo‘llabquvvatlash va ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash” alohida strategik vazifa sifatida belgilangan. Xususan, ushbu maqsadlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) Jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik (zero tolerance) muhitini yaratish, shuningdek, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash;

2)Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish;

3)Xotin-qizlarga ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishda, munosib ish bilan ta’minlanishda har tomonlama ko‘maklashish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish;

4)Hududlarda, ayniqsa, qishloq joylarda xotin-qizlarga ko‘rsatilayotgan tibbiyijtimoiy xizmatlar sifatini yaxshilash, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish samaradorligini oshirish;

5)Ehtiyojmand xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha tizimli choralarni belgilash, ularning yashash va mehnat sharoitlarini yaxshilash hamda daromadlari darajasini oshirish;

6)Og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatish hamda manzilli qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash;

7)“Ayollar daftari” mexanizmi orqali manzilli ishlarni olib borish va mutasaddi tashkilotlar tomonidan xotin-qizlar muammolarining o‘z vaqtida hal etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarning amaliy ijrosini ta’minlash maqsadida Oliy Majlis Senati tarkibida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo’mitasi tashkil etildi. Bundan tashqari, ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan faoliyatni muvofiqlashtirish uchun alohida Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili gender tenglik siyosatining amalga oshirilishi holati to‘g‘risida ma’lumot berilishi belgilab qo‘yildi. Bunday qonunchilikning qabul qilinishi xotin-qizlarga e’tiborni kuchaytirish, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash hamda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ishtirokini kengaytirish uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu choralar, shuningdek, davlat boshqaruvi

organlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va siyosiy partiyalar faoliyatida xotin-qizlarning o‘rni va rolini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.Bundan ma’lum bo’ladiki, gender tengligi jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning dolzarb va muhim omili bo‘lib qolmoqda.

Gender tengligi nima va nega muhim?

Gender tengligi — bu erkaklar va ayollarning jamiyat hayotidagi barcha sohalarda: ta’lim, sog‘liqni saqlash, siyosat, iqtisodiyot va oilada bir xil darajadagi nufuzga, resurslarga va himoyaga ega bo‘lishidir.

Nima uchun bu muhim? Ayollar va qizlar dunyo aholisining yarmini tashkil qiladi, demak, bu insoniyat salohiyatining yarmi deganidir. Gender tengligi fundamental inson huquqi bo‘lishidan tashqari, tinchlikka asoslangan jamiyat qurish, inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va barqaror rivojlanishga erishish uchun ham zarurdir. Qolaversa, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish mehnat unumdorligini oshirishi va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi isbotlangan.

Afsuski, "BMT-Ayollar" (UN Women) tashkilotining ogohlantirishicha, erkaklar va ayollar o‘rtasida huquq va imkoniyatlar tengligiga to‘liq erishish uchun hali oldinda uzoq yo‘l turibdi. Shu sababli, gender zo‘ravonligining barcha shakllariga barham berish hamda ayollar va qizlar, shuningdek, erkaklar va o‘g‘il bolalar uchun sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash, iqtisodiy resurslar va siyosiy hayotda ishtirok etishda teng imkoniyatlarni ta’minlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ishga joylashishda, barcha darajadagi rahbarlik va qaror qabul qilish lavozimlarida teng imkoniyatlarga erishish ham zarurdir.

Farovon iqtisodiyot va sog‘lom sayyorani barpo etishni istasak, gender tengligi har qachongidan ham muhimroqdir. Biroq, biz jiddiy muammoga duch kelmoqdamiz: 2030-yilga borib gender tengsizligi tafovutini bartaraf etish uchun yiliga qo‘shimcha 360 milliard dollar mablag‘ talab etiladi.

Iqtisodiy samaradorlik jihatdan McKinsey Global Institute tadqiqotlariga ko‘ra, agar ayollar mehnat bozorida erkaklar bilan teng ishtirok etsa, 2025-yilga kelib global YaIMga 28 trillion dollar qo‘shilishi mumkin. Shuningdek, ijtimoiy barqarorlik nazarida ayollar qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etgan jamiyatlarda ijtimoiy himoya, ta’lim va tibbiyotga yo‘naltirilgan sarmoyalar hajmi ortadi hamda inson huquqlari yuzasidan ushbu masalaga chuqur nazar solsak, har bir shaxs o‘z jinsidan qat’i nazar, erkin tanlov huquqiga ega bo‘lishi — zamonaviy demokratiyaning bosh mezonidir.

O‘zbekistonda gender tengligi yo‘lidagi yutuqlar va islohotlar

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda gender tengligini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Bu borada tashlangan dadil qadamlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Shuningdek, bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizini ayollar tashkil etadi va jtimoiy himoya jihatidan Xotin-qizlar muammolarini tizimli hal etish uchun "Ayollar daftari" joriy etildi.

Bundan tashqari, 2023-yilda oilaviy zo‘ravonlik uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi ayollar huquqlarini himoya qilishda tarixiy burilish bo‘ldi.

Ayni damda yurtimizda ayollarning ulushi tibbiyotda – 77 foizni, ta’lim sohasida – 74 foizni, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foizni tashkil etishi, shuningdek, xotin-qizlarning boshqaruv sohasidagi ulushi 33 foizga hamda partiyalar safidagi ulushi 47 foizga yetgan. Qolaversa, so‘nggi olti yilda gender tenglikni ta’minlashga, xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirishga, ularni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilishga, oila institutini mustahkamlashga qaratilgan 40 dan ziyod qonun hujjatlarining qabul qilingan. Sohada olib borilayotgan islohotlar qator xalqaro reyting agentliklari tomonidan ham yuqori baholanayotganligi, xususan, “Open Data Watch” tashkilotining Ochiq gender ma’lumotlari indeksida O‘zbekiston 69,7 ball bilan 195 ta davlat orasida 18-o‘rinni qayd etib, top-20 talikdan joy olganligi alohida ta’kidlasak bo’ladi. Bundan ko’rinib turibtiki, yurtimizda gender tengligini ta’minlash va uni rivojlantirishni ustuvor masalalarini amalga oshirishda ko’pgina strategik chora tadbirlar ko’rilayotgligi, bu jabhada yahshigina taraqqiyot yuz berayotganidan dalolatdir.

Gender tengligiga erishish yo‘lidagi tizimli to‘siqlar va ijtimoiy stereotiplar

Gender tengligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay, jamiyatda ayollarning o‘z salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishiga to‘sqinlik qiluvchi qator tizimli va ijtimoiy omillar saqlanib qolmoqda. Bu to‘siqlarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-madaniy stereotiplar va "Gender rollari"

Jamiyatda shakllanib qolgan an’anaviy qarashlarga ko‘ra, ayol kishining asosiy vazifasi faqat oila va farzand tarbiyasi bilan cheklangan. Bu tushuncha qiz bolaning yoshligidan uning ta’lim va kasbiy rivojlanishiga bo‘lgan munosabatini belgilab beradi. Ko‘pincha qizlarga "murakkab bo‘lmagan" yoki "ayollarga xos" kasblar (pedagogika, hamshiralik) tavsiya etiladi, bu esa ularning muhandislik, texnologiya (STEM) yoki siyosat kabi sohalarga kirib borishini cheklaydi.

2. "Shisha shift" (Glass Ceiling) va rahbarlikdagi to‘siqlardir.

Zamonaviy mehnat bozorida ayollar soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, yuqori boshqaruv lavozimlarida ularning ulushi hali ham pastligicha qolmoqda. Ushbu ko‘rinmas to‘siq — "shisha shift" — ayollarning kasbiy mahorati yetarli bo‘lsa ham, ularning yuqori qaror qabul qiluvchi lavozimlarga ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu ko‘pincha ayol kishining oilaviy majburiyatlari uning rahbarlik faoliyatiga xalaqit beradi degan noto‘g‘ri ijtimoiy tasavvur bilan bog‘liq.

3. Uy yumushlarining nomutanosib taqsimlanishi

Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayollar pullanmaydigan uy mehnatiga (ovqat pishirish, tozalash, qariyalarga qarash) erkaklarga qaraganda bir necha barobar ko‘proq vaqt sarflaydilar. Ushbu "ikki karra yuklama" ayollarning professional o‘sishi, dam olishi va o‘z ustida ishlashi uchun vaqt yetishmasligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ularning iqtisodiy mustaqilligini zaiflashtiradi.

4. Iqtisodiy tengsizlik va ish haqi tafovuti

Bir xil ish va bir xil mas’uliyat uchun ayollarga erkaklarga qaraganda kamroq haq to‘lanishi tendensiyasi global muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ayollar ko‘p hollarda norasmiy sektorda yoki past maoshli xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lib, bu ularni ijtimoiy himoyasiz qilib qo‘yadi.

5. Huquqiy ong va maishiy zo‘ravonlik

Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik ularning jamiyat hayotidagi faolligini so‘ndiruvchi asosiy omildir. Ayrim hollarda ayollarning o‘z huquqlarini yetarli darajada bilmasligi yoki jamiyatdagi "odamlar nima deydi" qabilidagi tazyiqlar ularni himoyasiz qoldirmoqda.

Tenglikka erishish uchun nima qilish kerak? Amaliy takliflar

Avvalambor, ta’lim tizimida gender yondashuvini joriy etish bu fundamental yechim sifatida baholanadi ya’ni maktab darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini qayta ko‘rib chiqish, ulardagi ayol faqat uy bekasi, erkak esa faqat ta’minotchi ekanligi tasvirlangan stereotiplardan voz kechish.

Qizlar o‘rtasida STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) yo‘nalishlarini targ‘ib qilish hamda ushbu sohalar uchun maxsus grant va stipendiyalar ajratish.

Shuningdek mehnat faoliyatida, masofaviy ish va moslashuvchan ish grafigi: Yosh onalar uchun ish va oilani muvozanatlashtirish imkonini beruvchi mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish orqali ayollarni uy mehnatidan va bola tarbiyasidagi katta yuklamadan xalos etish.

Mazkur masalada Erkaklarning mas’uliyatini oshirish ayniqsa ijtimoiy kampaniyalarda. Bola tarbiyasi va uy yumushlari faqat ayolning vazifasi emas, balki ikki tomonlama mas’uliyat ekanligini targ‘ib qiluvchi ijtimoiy loyihalarni ko‘paytirish. Otalar uchun mo‘ljallangan "Otalik ta’tili" tizimidan foydalanishni rag‘batlantirish. Bu erkaklarning oiladagi rolini oshiradi va ayollarning ishga qaytishini osonlashtiradi.

Bugungi kunda dolzarb masalalardan yana biri Kvotalar tizimi doirasida Rahbar ayollar zaxirasini shakllantirish hisoblanadi. Davlat boshqaruvi va siyosiy partiyalarda ayollar uchun belgilangan 30 foizlik kvotani bosqichma-bosqich oshirib borish.Shuningdek,Xususiy sektorda ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlovchi "Mentorlik" ya’ni ustoz-shogird dasturlarini yo‘lga qo‘yish ham gender tengligi masalasini hal qilishda muhim omil kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, adolatning yangi ovozi – bizning qo‘limizda.

Gender tengligi — bu har bir insonning qadr-qimmati e'zozlanadigan jamiyat qurishdir. Adolatning yangi ovozi har birimizning xonadonimizdan boshlanadi. Zero, jamiyat ikki qanotli qush kabi bo'lib, erkak va ayol huquqlari teng bo'lsagina, u taraqqiyot cho'qqilariga parvoz qila oladi.

FOYDALANILGAN XALQARO HUJJATLAR:

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) 1945 yilgi Nizomi https://treaties.un.org/doc/publication/ctc/uncharter.pdf

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT). Barqaror rivojlanish maqsadlari: 5maqsad (Gender tengligi). New York, 2023. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs/5

"Ayollar huquqlari to'g'risidagi xalqaro bill" (CEDAW, 1979)https://www.ohchr.org/en/instrumentsmechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discriminationagainst-women

McKinsey Global Institute tomonidan o'tkazilgan yirik iqtisodiy tadqiqot hisoboti The Power of Parity: How Advancing Women's Equality Can Add $12 Trillion to the Global Economy. 2022 update.https://www.mckinsey.com/featured-insights/employment-andgrowth/how-advancing-womens-equality-can-add-12-trillion-to-global-growth Jahon banki hisoboti (World Bank). Women, Business and the Law report. 2024.https://documents1.worldbank.org/curated/en/099110624115537381/pdf/P167792-e884b79d-fbaa-4b87-a416-b44e57ac5a89.pdf

MILLIY QONUNCHILIK HUJJATLARI:

"2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi" https://lex.uz/docs/-5466673

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni https://strategy.uz/index.php?news=1467&lang=uz

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562 qonuni, 2019 .https://www.lex.uz/actinfo/correspondents/-6314589

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. O'zbekistonda ayollar va erkaklar (statistik to'plam). Toshkent, 2023.

FOYDALANILGAN AXBOROT MANBALARI:

1) **https://lex.uz**
2) **https://scholar.google.com**
3) **https://kun.uz**

